

Buxoro viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-aprel holatiga Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni **2 112,2** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,4** foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **8,7** ming nafarni, vafot etganlar **2,3** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **6,4** ming kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **8** kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **29** kishini, qayd etilgan nikohlar **2,8** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,7** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 112,2	<i>ming kishi</i>
Tug'ilganlar soni	8,7	<i>ming kishi</i>
Vafot etganlar soni	2,3	<i>ming kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	8	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	29	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	2,8	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	0,7	<i>ming birlik</i>

II. Doimiy aholi soni


Buxoro viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra **2 112,2** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **29,4** ming kishiga yoki **1,4** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **775,9** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **36,7%**), qishloq joylarda esa **1 336,3** ming kishi (**63,3%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 053,1** ming kishini (**49,9%**), erkaklar esa **1 059,1** ming kishini (**50,1%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi (1-aprel holatiga, ming kishi)

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 082,8	2 112,2	101,4
Buxoro sh.	301,4	305,5	101,4
Kogon sh.	65,6	66,3	101,1
<i>tumanlar:</i>			
Olut	106,1	107,6	101,4
Buxoro	182,4	185,7	101,8
Vobkent	151,8	154,7	101,9
G'ijduvon	328,2	332,9	101,4
Kogon	86,7	88,3	101,8
Qorako'l	174,7	176,7	101,1
Qorovulbozor	20,4	20,7	101,5
Peshku	133,8	136,1	101,7
Romitan	153,8	155,6	101,2
Jondor	189,3	192,3	101,6
Shofirkon	188,6	189,8	100,6

Buxoro viloyatida 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **52,5** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,7** kishiga ortgan (2025-yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga **51,8** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **8,7** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **16,8** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,5** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **2,3** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,2** ming kishiga kamaygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **8,7** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **4,4** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **50,6%**), qiz bolalar soni **4,3** ming kishini (**49,4%**) va shahar joylarida **3,0** ming kishini (**34,5%**), qishloq joylarida **5,7** ming kishini (**65,5%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **2,3** ming kishini, shundan erkaklar **1,3** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **56,5%**), ayollar **1,0** ming kishini (**43,5%**) va shahar joylarida **0,8** ming kishini (**34,8%**), qishloq joylarida **1,5** ming kishini (**65,2%**) tashkil qildi.


Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **2,8** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,4** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka kamaygan.


Nikohdan ajralishlar soni **0,7** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming nafarga ko'paygan.



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **2,8** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,9** ming birlikni (**32,1%**), qishloq joylarida **1,9** ming birlikni (**67,9%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **0,7** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,3** ming birlikni (**42,9%**), qishloq joylarida **0,4** ming birlikni (**57,1%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **3 546** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **3 538** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **8** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **4 816** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **4 787** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **29** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Buxoro viloyati	3 546	3 538	8	4 816	4787	29
Buxoro sh.	1 073	1 072	1	1 368	1 366	2
Kogon sh.	246	245	1	226	225	1
<i>tumanlar:</i>						
Olot	79	78	1	176	176	0
Buxoro	611	609	2	470	470	0
Vobkent	120	120	0	217	217	0
G'ijduvon	331	330	1	610	609	1
Kogon	303	303	0	288	288	0
Qorako'l	135	133	2	344	344	0
Qorovulbozor	73	73	0	98	88	10
Peshku	102	102	0	140	140	0
Romitan	127	127	0	164	149	15
Jondor	138	138	0	267	267	0
Shofirkon	208	208	0	448	448	0

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuvi shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Demografiya, mehnat va gender
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

Sh. Musayeva
65 223-83-37 (8070)

Manzil:

